



YOSHLAR AXLOQIY TARBIYASINI YUKSALTIRISHDA OMMAVIY-MADANIY TADBIRLARNING FALSAFIY TAHLILI

Najmetdinova Mavluda Mamasodiqovna

Farg'ona davlat universiteti

Musiqa ta'limi va madaniyat kafedrasi katta o'qituvchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8004516>

ARTICLE INFO

Received: 27th May 2023

Accepted: 03rd June 2023

Online: 04th June 2023

KEY WORDS

Ommaviy-madaniy tadbirlar, axloqiy tarbiya, jamiyat, mavzuli kechalar, ma'naviyat, madaniyat, dunyoqarash, g'oya, ijtimoiy, siyosiy, ma'rifiy, maorif.

ABSTRACT

Maqolada yoshlar axloqiy tarbiyasini yuksaltirishda ommaviy-madaniy tadbirlarning o'rni va roli shuningdek, o'tkaziladigan tadbirlarning mazmun-mohiyati va ularning jamiyatdagi vazifasi hamda tarbiyaviy ahamiyati falsafiy tahlil qilinadi. Shu bilan birga ommaviy-madaniy tadbirlarning yoshlar ma'naviy dunyoqarashigi ta'siri masalasi ham ko'rib chiqiladi.

Kirish. Jamiyatimizda ro'y berayotgan ma'naviy yuksalish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy uyg'onish jarayonlari bilan bog'liqdir. Bu esa bevosita yoshlar axloqiy tarbiyasini yuksaltirish masalalarida ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, yoshlar axloqiy madaniyatini yuksalishda mamlakatda o'tkaziladigan tadbirlardan, jumladan, ommaviy-madaniy tadbirlardan oqilona foydalanish alohida ahamiyatga ega.

Ommaviy-madaniy tadbirlarni o'ziga xos xususiyatlarini xisobga olgan holda joylarda yoshlarning imkoniyatlariga qarab, ularni axloqiy tarbiyasiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bunda albatta, milliy-ma'naviy qadriyatlarimizdan oqilona foydalanish orqali amalga oshirish lozim.

Qobusnomada "Agar nazirsiz (mislsiz) ustod bo'lsang ham majlis ichidagi harflarga (ulfatlarga) qarag'il, agar musiqadan zavq oluvchi qariyalar va xos odamlar bo'lsa, mutriblik (sozandalik) qil, yaxshi yo'llarni va navolarni chertg'il. Qarilik va dunyoning mazammatidin (yomonlik, xo'rlikdin) ko'proq surid (ashula, qo'shiq) aytg'il. Agar majlis ahli yosh yigitlar bo'lsa, yengil yo'llarni ko'proq chertg'il va oson surid aytg'il", -deyiladi. Demak, biz ham mamlakatimizda bayram munosabati bilan tashkil qilinadigan ommaviy-madaniy tadbirlarni fuqarolarimizning yoshlarini hisobga olgan xolda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Asosiy qism. Ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil qilish va ularni yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga yo'naltirish bevosita ta'lim muassasalari mas'ul xodimlari faoliyatiga kiradi.

Ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etishda quyidagi jixatlarga rioya qilish maqsadga muvofiq:

- ommaviy-madaniy tarbirlarda yuqori interaktivlikka erishish;
- ommaviy-madaniy tarbirlarda o'zini-o'zi tarbiyalash jarayonini tashkil etish;



- ommaviy-madaniy tadbirga kompleks yondashish;
- ommaviy-madaniy tadbirning ma'naviy-axloqiy ruhda bo'lishi;
- inson va jamiyat manfaatlariga uyg'un bo'lishi shular jumlasidandir.

Ommaviy-madaniy tadbirlarni o'tkazish bilan shug'ullanadigan muassasa va tashkilotlar turli-tuman bo'lib, ulardan xar biri muayyan turdagi tadbirlarni o'tkazishga ixtisoslashadi: ommaviy-madaniy tarbirlarni olib boruvchi har bir muassasa va tashkilotlar o'z moxiyati, xususiyati, imkoniyatlaridan kelib chiqib, o'ziga xos shakl-tadbirlardan foydalanadi. Jumladan, drama teatrlari spektakllardan, professional musiqa-cholg'y ansambllari konsertlardan, o'quv muassasalari dars, leksiya, seminar kabi shakllardan foydalanib, ular orqali o'z faoliyatini olib boradi. Shuningdek, yoshlar bilan mavzuli kechalar, o'tkir zexnlilar baxslashuvlari, ilmiy baxslar, munozara, ijodiy uchrashuv, quvnoqlar va zukkolar kabi shakldagi tadbirlarning qiziqarli bo'lishi ularning tarbiyaviy samaradorligi keskin oshadi. Shu bilan birga yosh avlod axloqiy tarbiyasi bilan shug'ullanadigan madaniyat xodimida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ko'rinishi yuksak darajada bo'lishi kerak. "Aks xolda ulg'ayib borayotgan yosh avlodni ma'naviy qashshoq, madaniyatdan ancha orqada qolishiga axloq normalariga zid tarbiya topishiga omil bo'lishi mumkin"¹.

Ommaviy-madaniy tadbirlarning muhim vazifalaridan biri jamiyatning barcha sohalarida yoshlarning faolligini rivojlantirish uchun sharoit yaratishdir. Yoshlarning jamiyatda ijtimoiy faolligini oshirishda madaniyatning barcha shakl usullaridan, jumladan, musiqali dam olish dasturlarini tashkil qilish, san'at ko'rgazmalariga tashrif buyurish turli xil ommaviy bayramlarni o'tkazish orqali amalga oshirish mumkin.

Professor Usmon Qoraboev ta'kidlashicha, "Ommaviy-madaniy tadbirlarni tarbiyaviy va madaniy ish sifatida barcha davlat muassasalari, kasaba uyushmalari, yoshlar uyushmalari, ommaviy axborot vositalari, san'at muassasalari, ishlab chiqarish korxonolari, jamoa xo'jaliklari, mudofaa tashkilotlari, sport, ekskursiya-turistik muassasalari, kurort, sog'liqni saqlash va dam olish tashkilotlari o'z ishining bir bo'lagi sifatida, ya'ni asosiy vazifadan tashqari xolda uyushtirib, bu tadbirlar orqali mehnatkashlarning dam olishini, tarbiyaviy, madaniy-ma'rifiy ishni, xavaskorlik ijodini tashkil qiladilar".

Ommaviy-madaniy tadbirlarni yuqorida qayd etilgan tashkilot va muassasalar ishining bir bo'lagi sifatida, ya'ni asosiy vazifadan tashqari holatda tashkil qilinsa, xozirgi zamon talablaridan kelib chiqib, shuni ham qo'shimcha qilgan xolda ta'kidlash lozimki, bu tadbirlar o'quv yurtlari pedagog-xodimlari ishining asosiy qismi, asosiy vazifasi sifatida qaralib, ular bevosita bajarishi zarur bo'lgan asosiy funksiyalaridan xisoblanishi lozim. Chunki, ta'lim jarayonida faqatgina ma'ruza o'qish, seminar o'tkazish kabi shakllar bilan cheklanilsa, bir tomondan, mashg'ulotlar zerikarli bo'lib qolsa, ikkinchi tomondan, ta'lim jarayonining tarbiyaviy jihati oqsab qolishi mumkin.

Ta'lim jarayoniga quvnoqlar va zukkolar tortishuvlari, ilmiy baxslar, munozara, ijodiy uchrashuv, mavzuli kecha singari madaniy-ma'rifiy tadbirlarni jalb etish mashg'ulotlarning juda qiziqarli bo'lishini ta'minlash bilan birga ularning tarbiyaviy jixatdan yuqori samarali bo'lishiga ham ko'maklashadi. Bu esa mazkur tadbirlar ta'lim va tarbiyaning uzviyligini

¹ Бўронов Б. Комил инсонни тарбиялашда ижтимоий-маданий фаолият тизимининг ўрни ва роли. –Тошкент: ҒофурҒулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Ижтимоий-маданий фаолиятнинг долзарб муаммолари. (илмий мақолалар тўплами). 2011. –Б. 68



ta'minlash bilan birga ularning har ikkisi ham yuqori samarali bo'lishiga xizmat qilishini anglatadi.

Yoshlar axloqiy tarbiyasini yuksaltirish, ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish, ularning bilimdonligini oshirish maqsadida tarbiyaviy hamda ommaviy-madaniy tadbirlarni uzviy xolda tashkil qilib, olib borish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, ta'lim muassasalarida olib boriladigan ommaviy-madaniy tadbirlar aniq maqsadga yo'naltirilganligi bilan alohida ajralib turishi lozim. Chunki tashkil qilinadigan mazkur tadbirlar yoshlarning ma'naviy ehtiyoji, jamiyat oldidagi burchi, ma'naviy dunyoqarashini boyituvchi manba bo'lmog'i kerak.

Yoshlarni qanday qilib ma'naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirish kerakligini aniq rejalashtirmay turib, bu boradagi tarbiyaviy ishlarni samarali olib borib bo'lmaydi. Bu borada ish olib boradigan har bir mas'ul xodim shu tarbiyaning mohiyati, usullari, shakllari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishi zarur.

Ommaviy-ma'naviy tadbirlarning tarbiya jarayonida axloqning burch, vijdon, or-nomus kabi bir qator kategoriyalari bilan uyg'unlashtirilgan holda olib borish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, o'tkaziladigan tadbirlarning asosida Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi g'oyalar bo'lishini tashkil etishi kerak.

Ommaviy-madaniy tadbirlarning tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi va ko'zlangan maqsadga erishishi uchun belgilangan vazifalarni bajarishni aniq maqsad qilib olishini hamda bunga erishish uchun zarur muhit yaratishi lozim. Shuningdek, tashkil qilinadigan mazkur tadbirlar "Milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalarini keng targ'ib qilish va ommalashtirish yosh avlodni, hozirgi yoshlarimizni ma'naviy tarbiyalashning asosi bo'lmog'i kerak"².

Ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil qiluvchi pedagog-xodimlar o'quvchi-yoshlarda axloqiy tarbiyani yo'lga qo'yishlari uchun ularga istiqbolni aniq ko'rsata olishlari, unga erishish yo'llarini izlab topishlari, yuksak ideallarga ega bo'lishlari uchun imkoniyat yaratishlari zarur. Bunga erishish uchun esa, o'zini-o'zi tarbiyalash bilan muntazam ravishda shug'ullanish, jamiyatning, Vatanning faqat bugungi manfaatlari haqidagina emas, balki uning kelajagi to'g'risida ham g'amxo'rlik qilish ruhida tarbiyalashni taqozo etadi.

Ma'naviyatimiz asoschilari, buyuk mutafakkir-allomalarimizning hayoti va ijodiy faoliyati yoshlarimiz uchun insoniy ideal, yorqin axloqiy namuna, xaqiqiy ibratdir. Ularning yuksak axloqiy fazilatlarini, xaqiqiy olijanoblighi, odamiylighi, mexribonu g'amxo'righi, kamtarinlighi, xalqona qadriyatlarga sodiqlighi, millat kelajagi uchun fidoyilighi – yangi O'zbekistonimiz taraqqiyotining poydevori hisoblanadi.

O'quv yurtlari rahbarlari ma'naviyat masalalari bo'yicha o'rinbosarlari lavozimining ta'sis etilishi ommaviy-madaniy tadbirlarning miqdoriy jihatdan o'sishi uchun ham asos yaratildi. Ommaviy-madaniy tadbirlarning o'tkazilishi bo'yicha statistika yuritilmasa ham, bunday tadbirlarning miqdori jiddiy o'sganini guvohi bo'lamiz.

Metodologiya. Tadbirlarning har biri o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, shunga monand ravishda, ularni o'tkazish uslubiyati ham bir-biridan farq qiladi. Ommaviy-madaniy tadbirlar orasida eng ko'p qo'llanayotgan shakllardan biri mavzuli kechalardir.

² Феруза Асқар. Музыка ва инсон маънавияти. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, Давлат илмий нашриёти. 2000. –Б. 5



“Mavzuli kecha” atamasi dastlab muayyan bir mavzuga bag‘ishlangan va oqshom paytlari o‘tkaziladigan tadbirlarni anglatgan. Bunday ommaviy-madaniy tadbirlar jumlasiga uchrashuv kechalari, xotira kechalari, she‘riyat kechalari, vatanparvarlik mavzusidagi kechalar, qo‘shiq kechalari, raqs kechalari va boshqalarni kiritish mumkin. Bunday tadbirlar avvallari odamlar ishdan bo‘shagandan keyin, oqshomda, kechqurunlari o‘tkazilgani sababli “kechalar” nomi olgan. Biroq, vaqt o‘tishi bilan bunday tadbirlar kunduzlari ham o‘tkazila boshlagan. Lekin, ularning dastlabki nomi – “kechalar” saqlanib qolgan. Shuning uchun hozirgi davrda kunduzi yoki ba‘zan ertalab o‘tkaziladigan ana shunday tadbirlar ham “kechalar”, - deb ataladi.

Mavzuli kechalarning konsertlar, spektakllar va boshqa san‘at janrlaridan asosiy farqi shundaki, bu tadbirlar jarayonida teatrlashtirilgan ommaviy harakatlar yuzaga keladi. Bu tadbir davomida ijrochi va tomoshabinlar bir butunlikni tashkil etadi. Shuning uchun mavzuli kechalar, o‘z mohiyatiga ko‘ra, ommaviy-madaniy bayramlarga juda yaqin turadi. Mavzuli kechalar xalq uchun va jamoa uchun qadrlil hisoblanadigan va muhim ahamiyat kasb etadigan biror voqea yoki sanaga bag‘ishlab o‘tkaziladi.

Mavzuli kechalarni tayyorlash bosqichi juda muhim ahamiyatga ega. Chunki ana shu bosqichda kechani tayyorlash bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishga bo‘lg‘usi tomoshabinlar keng miqyosda jalb etiladi. Bu holat mavzuli kecha ishtirokchilarning passiv kuzatuvchi emas, balki tadbirning faol qatnashchilariga aylanishini ta‘minlaydi.

Mavzuli kechalarni o‘tkaziladigan joylarga karab turlarga bo‘lish sababi shundaki, yuqorida sanab o‘tilgan joylarda o‘tkaziladigan mavzuli kechalar ishtirokchilarning tarkibi, yoshi, kasbi, jinsi, ijtimoiy mavqei kabi xususiyatlarga ko‘ra farqlanadi. Bu farqlar faqatgina tashqi tafovut bo‘lmasdan, ular mavzuli kechalarning o‘tish jarayoniga, sahnadagi ijrochi bilan tomoshabin o‘rtasidagi xissiy-emosional aloqaning xususiyatlariga jiddiy ta‘sir o‘tkazadi. Masalan, ta‘lim muassasasidagi vatanparvarlik mavzusida o‘tkaziladigan mavzuli kecha istiroxat bog‘ida o‘tkaziladigan mavzuli kechadan jiddiy farq qiladi.

Ta‘lim muassasasidagi mavzuli kecha ishtirokchilarining aksariyati o‘quvchi-yoshlardan iborat bo‘lca, istiroxat bog‘idagi mavzuli kechaning tomoshabinlari turli yosh, jins, kasbga mansub odamlardan iborat bo‘ladi. Ta‘lim muassasasida o‘tkaziladigan mavzuli kecha tomoshabinlarining sahnadagi ijrochilari, o‘zlarining kursdoshlari, guruhdoshlari bo‘lganligi uchun ham ular bilan xissiy-emosional aloqa o‘rnatishi oson kechadi. Ular sahnadagi do‘stlarining muvaffaqiyatini o‘z muvaffaqiyati singari qabul qiladi. Ijrochilarning nuqsonlarini esa o‘z nuqsoni singari xis etadi. Bunday holat ijrochilar bilan tomoshabinlar o‘rtasidagi xissiy-emosional uyg‘unlikni ta‘minlaydi. Ana shu uyg‘unlik kechaning tarbiyaviy ahamiyati yuqori darajada bo‘lishini kafolatlaydigan eng muhim jihatlardan biridir.

Istirohat bog‘idagi mavzuli kechalarda ijrochilar bilan tomoshabinlar o‘rtasidagi xissiy uyg‘unlikni ta‘minlash ancha murakkabroq kechadi. Buning uchun ijrochilardan ancha mahorat, vaqt va kuch talab qilinadi. Istirohat bog‘laridagi mavzuli kechada ijrochilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolar tomoshabinlarning kulgisiga sabab bo‘lishi mumkin.

Professor Usmon Qoraboev ta‘kidlashicha, “Ta‘lim muassasasida o‘tkaziladigan mavzuli kechalar o‘z shakl va mazmuni jixatidan ko‘p janrli hisoblanadi. Uning asosiy janrlari esa quyidagilardan iborat: xronika kechalari; xikoya kechalari; portret kechalari; an‘anaviy kechalar va xokazo”. Usmon Qoraboevning fikrlariga yana shuni qo‘shimcha qilishimiz



mumkinki, mavzuli kechaning bitta janri bo'yicha o'tkazilayotgan tadbirning tarkibiga yana boshqa bir necha janrlar ham kiritilgan bo'lishi mumkin. Masalan, portret kechalari janri bo'yicha o'tkazilayotgan mavzuli kechaning tarkibi badiiy o'qish (monolog, she'rni ifodali o'qish), sahna asarlaridan parchalar, qo'shiqlar, raqslar va xokazolardan iborat bo'lishi mumkin.

Ijrochi va tomoshabin o'rtasida vujudga keladigan o'ziga xos va juda yaqin hissiy-emosional munosabatlar o'tkaziladigan mavzuli kechalarning tarbiyaviy ahamiyati yuqori bo'lishi uchun imkoniyat yaratadi. Shu imkoniyatdan amalda qanday foydalanilayotganligini o'rganish maqsadida bir necha maktablar va oliy o'quv yurtlarida o'tkaziladigan mavzuli kechalarni kuzatdik va tahlil qildik. Kuzatgan bayram-kechalarining aksariyati yuqori g'oyaviy-badiiy saviyada o'tdi. Ayniqsa, ommaviy-madaniy tadbir sifatida rivojlanib borayotgan "Til bayrami", "Kitob bayrami", "Alifbe bayrami", "Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!" mavzusidagi kechalar yoshlarda juda katta taassurot qoldirdi.

"Til bayrami"da yig'ilgan yoshlar Til insonlarning o'zaro aloqa vositasi bo'lib, yaratuvchining insonga bergan bebaho ne'mati ekanligi hamda millatlarning millatdan ajratib turuvchi belgilardan biri ekanligi haqida she'rlar aytib, qo'shiqlar kuyladilar. Shuningdek, "Kitob bayrami"da o'quvchi-yoshlar kitob kishilarning bilim olishi va dunyoqarashining kengayishi, kasb sirlarini egallashi uchun xizmat qilishi haqida bayram ishtirokchilari o'z fikrlarini bildirib o'tdilar. An'anaviy bayram tusini olib borayotgan "Alifbe bayrami"ning tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki, unda har bir o'quvchi o'zining olgan bilimi natijalarini namoyon qiladi. Bu bayram tadbirlari o'quvchilarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi³.

"Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!" mavzusidagi kechada yoshlar terrorizmga qarshi ularning yovuz basharasini fosh etadigan sahna ko'rinishlaridan parchalar taqdim etdilar, vatanparvarlik mavzusida she'rlar o'qidilar hamda raqs va qo'shiqlar ijro qildilar.

"Madaniy hayotimiz ravnaqi yo'lida nihoyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan bu ishlarni amalga oshirish, ro'yobga chiqarishda..." sohaga tegishli bo'lgan muassasa xodimlari o'zlarining munosib hissalarini qo'shishlari lozim.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarimizning axloqiy madaniyatini yuksaltirishda ommaviy-madaniy tadbirlar juda muxim o'rin tutadi. Chunki har bir o'tkaziladigan ommaviy-madaniy tadbir asosida, yuqorida ta'kidlaganimizdek, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi g'oyalar yotadi. Shuningdek, ommaviy-madaniy tadbirlarni o'tkazishda ta'lim hamda madaniy-ma'rifiy muassasalar imkoniyatlarini birlashtirish yanada yuqori samara beradi.

References:

1. Кайковус. Қобуснома. –Тошкент: Ўқитувчи. НМИУ. 2006. –Б. 150
2. Бўронов Б. Комил инсонни тарбиялашда ижтимоий-маданий фаолият тизимининг ўрни ва роли. –Тошкент: ҒофурҒулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий

³ Қорабоев У. Ўзбек халқи байрамлари. –Тошкент. Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2002. –Б. 199-200



- уйи. Ижтимоий-маданий фаолиятнинг долзарб муаммолари. (илмий мақолалар тўплами). 2011. –Б. 68
3. Фेरүза Асқар. Муסיқа ва инсон маънавияти. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энгциклопедияси, Давлат илмий нашриёти. 2000. –Б. 5
4. Қорабоев У. Ўзбек халқи байрамлари. –Тошкент. Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти. 2002. –Б. 199-200
5. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. –Тошкент: Ўзбекистон. НМИУ. 2018. 2-том. –Б. 221
6. Ulugbek Rahmonov Karimovich, Najmetdinova Mavluda Mamasodikovna, Ergashev Alijon Abdullaevich //The Role and Importance of Music Clubs in The Leisure of Young People// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. 22-11-2021. 47-49 pages.
7. Imyamin Kirgizov, Kirgizov Iqboljon Imyaminovich, Ahmadjon Nurmammedjanov, Sobirov Bahodirjon Sotvoldievich, Najmetdinova Mavludakhon Mamasodikovna, Ataboeva Shoxidakhon Juraevna //The Pleasure of Singing, Listening and Understanding Navoi// Annals of the Romanian Society for Cell Biology., ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 3, 2021, Pages. 2410-2413.
8. Qambarov Abdumutal Axadjonovich, Najmetdinova Mavluda Mamasodiqovna //MARGILAN LARGE ASHULA SCHOOL// European Scholar Journal (ESJ). Vol. 2 № 5, MAY 2021. 279-283 pages.
9. Нажметдинова Мавлуда Мамасодиқовна //ОММАВИЙ-МАДАНИЙ ТАДБИРЛАРНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШНИНГ ИННОВАЦИОН ОМИЛЛАРИ// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 10/2. October 2022. 584-588 pages.
10. Mavluda NAJMETDINOVA //Общественно-культурные мероприятия теоретические основы// Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations. Issue 02(2022). 473-479 стр.
11. Мавлуда Нажметдинова //Оммавий-маданий тадбирларнинг назарий асослари// Общество и инновации. 02(2022). 473-479 стр.
12. Ulugbek Rahmonov, Alijon Ergashev, Mavludahon Nazhmetdinova, & Shohista Usmonova. (2021). IN SHAPING THE SOCIO-SPIRITUAL THINKING OF YOUNG PEOPLE IN THE MUSICAL ART OF THE GREAT SCHOLARS OF THE EASTERN RENAISSANCE POSITION HELD. *Archive of Conferences*, 54-57.
13. Sultonali Mannopov, Mavluda Najmetdinova, Shokhida Ataboeva, Iroda Nazarova, Jamoldin Mo'ydinov //Analysis of Research on Aesthetic Features of Uzbek Folk Music// Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI). Volume 12, Issue 10, October 2021. 3528-3533 pages.
14. М.Нажметдинова, Жўрабоева Хакимахон //МАҚОМ САНЪАТИ ВА УНИНГ ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ДУНЁҚАРАШИГА ТАЪСИРИ// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(2), Feb., 2023. 813-817 pages.
15. Najmetdinova Mavluda Mamasodiqovna //SPECIFIC FEATURES OF PUBLIC-CULTURAL EVENTS// International Scientific Journal "Science and Innovation". Series 1. Volume 1. Issue 1. 892-902 pages.



16. Mavludaxon Najmetdinova //YOSHLARNING ESTETIK TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA – AJDODLAR MEROSINING TUTGAN O’RNI// SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. VOLUME 1. ISSUE 6. 990-993 pages.
17. Нажметдинова Мавлуда Мамасодиқовна //ОММАВИЙ-МАДАНИЙ ТАДБИРЛАРНИНГ ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ДУНЁҚАРАШИНИ ЮКСАЛТИРИШДАГИ ЎРНИ// SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. VOLUME 1. ISSUE 6. 282-287 pages.
18. Sharipova Odinakhon Shavkatjon kizi, Najmetdinova Maluda Mamasodikovna //ЎЗБЕК МУСИҚА САНЪАТИ ВА МАДАНИЯТИ МАСАЛАЛАРИГА ДОИР// "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal. Volume 3. Issue 1 / March 2022. 585-588 pages.
19. Нажметдинова Мавлуда Мамасодиқовна //ОММАВИЙ-МАДАНИЙ ТАДБИРЛАРНИНГ ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ДУНЁҚАРАШИНИ ЮКСАЛТИРИШДАГИ ЎРНИ// SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. VOLUME 1. ISSUE 6. 282-287 pages.
20. Imyamin Kirgizov, Iqbol Kirgizov, Mavluda Najmetdinova, & Shohida Atabayeva. (2022). THE GENESIS OF THE DEVELOPMENT OF MUSIC CULTURE. *Archive of Conferences*, 57-60.
21. КАМБАРОВ АБДУМУТАЛ АХАДЖОНОВИЧ, НАЖМЕТДИНОВА МАВЛУДА МАМАСОДИКОВНА //НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ РЕЛИГИОЗНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ МОЛОДЕЖИ// УСЛОВИЯ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОСТЬ. Материалы международной научно-практической конференции. 26 апреля 2019 года. 148-151 стр.
22. Камбаров А.А. //Религиозные ценности – прочная основа в формировании гармоничной личности// *Вестник Северо-Восточного федерального университета им. М.К.Аммосова. Серия «Педагогика. Психология. Философия»*. 2022;(3):78-84.
23. Qambarov Abdumutal Axadjonovich //TRANSFORMATION OF SCIENTIFIC AND RELIGIOUS VALUES THE NECESSITY OF EDUCATING AN ENLIGHTENED GENERATION THROUGH// *European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA)*. Vol. 2, No. 11, November 2021. 150-152 pages.
24. Қамбаров Абдумутал Аҳаджонович //ПОСТМОДЕРН ДУНЁДА ИЛМИЙ ВА ДИНИЙ ҚАДРИЯТЛАРГА МУНОСАБАТ ҲАМДА УНИНГ ДИАЛЕКТИК АСОСЛАРИ// НамДУ илмий ахборотномаси. 2020 йил, 9-сон. 158-165
25. Kambarov Abdumutal Ahhadjonovich //ATTITUDE TO SCIENTIFIC AND RELIGIOUS VALUES IN THE POSTMODERN WORLD AND ITS DIALECTICAL FOUNDATIONS// *Scientific Bulletin of Namangan State University*: Vol. 2: Iss. 9, Article 27. 158-165
26. Имямин Қирғизов, Имомова Одинахон //ЁШ АВЛОДНИНГ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ КАМОЛОТИДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИК РАҲИМАХОНИМ МАЗОХИДОВА ТИМСОЛИДА САНЪАТКОР ХОТИРАСИ// SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 7. October 2022. 108-117 pages.
27. Imyamin Qirg'izov //O'ZBEK MUSIQA SAN'ATI RIVOJINING ASOSIY OMILLARI// *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. VOLUME 2 | ISSUE 10/2. October 2022. 331-336 pages.
28. Қирғизов Имямин //МУСИҚИЙ КОПОЗИЦИОН ТЕНДАНЦИЯЛАРНИНГ ТАРИХИЙ ЖАРАЁНЛАРДА НАМОЁН БЎЛИШИ (ОПЕРА ВА БАЛЕТ МИСОЛИДА)// EURASIAN



JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE. Volume 3 Issue 5, Part 2 May 2023. 47-61 pages.

29. Турсунова Лайло Эргашевна //ЁШЛАР МУСИҚА МАДАНИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ОМИЛЛАРИНИ ҲАЁТГА ТАДБИҚ ЭТИШ// EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE. Volume 3. Issue 5, Part 2. May 2023. 23-34

30. Турсунова Лайло Эргашевна //Признание о международном фольклорном фестивале «Великий шелковый путь», проведённом в городе Маргилан Ферганской области// Проблемы современной науки и образования. 10 (143) 2019. 109-112 стр.

31. Tursunova Laylo //FUNCTIONS OF MUSICAL CULTURE IN THE FORMATION OF A SPIRITUAL WORLD VIEW// World Bulletin of Social Sciences (WBSS). Vol. 6, January, 2022. 72-77 pages.

32. Zoxidova Guzal Erkindjanovna, Tursunova Laylo Ergashevna // BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN "O'ZBEK XALQ CHOLG'U ORKESTR"LARI UCHUN REPERTUARLAR TANLASH MASALASI// INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. Vol. 3, № 10. 2022, 61-63 pages.

33. Tursunova Laylo Ergashevna, Xoliqova Sevara Baxodirovna //МАКТАБДА МУСИҚА ФАНИНИ О'ҚИТИШДА YANGICHA YONDASHUV// SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1. ISSUE 8. 2022 782-785 pages.

34. Baxodir Sobirov, Dilafruz Yuldasheva, Nazarova Iroda, & Tursunova Laylo. (2022). MUSICAL WORKS AND THEIR PLACE IN HUMAN LIFE. *Archive of Conferences*, 53-56 pages.